

O'SMIRLIK DAVRIDA INTELLEKTUAL VA EMOTSIONAL RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Ismoilov Erkin Mengnimurotovich, Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti o'qituvchisi

FEATURES OF INTELLECTUAL AND EMOTIONAL DEVELOPMENT DURING ADOLESCENCE

Ismoilov Erkin Mengnimurotovich, Lecturer at Termez State University of Engineering and Agrotechnology

ОСОБЕННОСТИ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО И ЭМОЦИОНАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ В ПОДРОСТКОВОМ ВОЗРАСТЕ

Исмаилов Эркин Менгнимуротович, преподаватель Термезского государственного университета инженерии и агротехнологий



<https://orcid.org/0009-0006-1044-3587>

e-mail:

ismoiloverkin390@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif tomonidan bolalarning o'smirlik davridagi ruhiy, fiziologik, jismoniy va boshqa o'zgarishlar, shuningdek o'smirlik yoshida dunyoqarash, e'tiqod, prinsip, o'zligini anglash, baholash kabi shaxs xususiyatlarining shakllanishi hamda muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyati haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: O'smirlik, davr, intellekt, emotsiya, psixik rivojlanish, layoqat, qobiliyat, muloqot, me'yor, nutq, diqqat, xususiyat, faollik.

Abstract: In this article, the author discusses mental, physiological, physical and other changes of children during adolescence, as well as the formation of personal characteristics such as worldview, beliefs, principles, self-awareness, evaluation, and communication and cooperation activities during adolescence.

Key words: adolescence, period, intellect, emotion, mental development, ability, ability, communication, norm, speech, attention, characteristic, activity.

Аннотация: В данной статье автор рассматривает психические, физиологические, физические и другие изменения детей в подростковом возрасте, а также формирование таких личностных характеристик, как мировоззрение, убеждения, принципы, самосознание, оценка, коммуникативно-сотрудническая деятельность в подростковом возрасте.

Ключевые слова: подростковый возраст, период, интеллект, эмоция, психическое развитие, способности, общение, норма, речь, внимание, характеристика, деятельность.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION). O'smirlik — bolalikdan katta yoshga o'tish davri bo'lib, u o'ziga xos fiziologik va psixologik xususiyatlar bilan tavsiflanadi. Mazkur bosqichda organizmda jismoniy va ruhiy rivojlanishning jadallashuvi kuzatiladi. O'smirlar hayotdagi turli sohalarga nisbatan kuchli qiziqish bildiradilar, yangilikka intilish kuchayadi, xarakter shakllana boshlaydi, ma'naviy dunyosi boyiydi va

psixologik ziddiyatlar kuchayadi. Bu davr balog'atga yetish bosqichi bo'lib, yangi his-tuyg'ular, sezgilar hamda jinsiy hayotga oid murakkab holatlarning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi.

Fiziologik jihatdan, bu davrda og'iz bo'shlig'i va halqumda sodir bo'ladigan o'zgarishlar natijasida tovush tembri o'zgaradi. Ayniqsa, bu holat o'g'il bolalarda yaqqolroq

namoyon bo'lib, ularning ovozi qattiqlashadi, tovush tembri og'ir va yo'g'onlashgan shaklga ega bo'ladi. Garchi mushaklar tez sur'atda o'sib, mustahkamlanib borayotgan bo'lsa-da, oyoq-qo'l suyaklarining o'sish sur'ati biroz orqada qoladi. Bu esa o'smirlarda beso'naqay harakatlar, yurish-turishdagi muvofiqlik yetishmasligi, qadamlarning yirikligi kabi xatti-harakatlarda o'z aksini topadi. Fiziologik o'zgarishlar jinsiy yetilishning boshlanishi bilan bog'liq bo'lib, bu jarayon tananing barcha a'zolarining takomillashuvi, hujayra va organizm tuzilmalari tarkibining qayta shakllanishida aks etadi. Bunday o'zgarishlar, asosan, endokrin sistemaning faollashuvi, xususan, gipofiz bezining faoliyati kuchayishi bilan bog'liq[2].

ADABIYOTLAR TAHLILI (АНАЛИЗ ЛИТЕРАТУРЫ \ LITERATURE ANALYSIS).

Psixologiya fan sifatida qadimiy davrlarda shakllana boshlagan bo'lib, uning asoslari qadimgi yunon olim-mutafakkirlari — Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Geraklit, Demokrit, Gippokrat, Galen hamda sharq uyg'onish davrining yirik allomalari Abu Ali ibn Sino, Abu Nasr Forobiy va Abu Rayhon Beruniylarning asarlarida uchraydi. Keyinchalik rus olimlari I.M.Sechenov va I.P.Pavlovlar bolalar rivoji, xususan, yoshga doir psixofiziologik o'zgarishlar haqida muhim ilmiy ma'lumotlarni taqdim etganlar [2].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, o'smirlar o'zlarini kattalardek tutishga intiladilar. Ular o'z layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini atrofdagilarga, ayniqsa, tengdoshlariga va o'qituvchilarga namoyish etishga harakat qiladilar. Bunday holatni oddiy pedagogik kuzatuvlar orqali ham aniqlash mumkin. Psixologik adabiyotlarda o'smirlik davri turlicha atamalar bilan — “o'tish davri”, “krisis davri” yoki “qiyin davr” sifatida tavsiflanadi. Bu davrga xos psixologik xususiyatlar va muammolar ko'plab ilmiy manbalarda keng yoritilgan [3].

МУНОВАРИ (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION). Kichik maktab yoshidan so'ng bola alohida shaxs sifatida o'z-o'ziga munosabatni shakllantirish jarayonida, odatda, ikki bosqichni bosib o'tadi. Ushbu bosqichlar o'smirlik yoshini ikki davrga — kichik o'smirlik va katta o'smirlik bosqichlariga ajratish imkonini beradi.

Birinchi bosqichda o'smir o'zini “bolalar” guruhidan ajratishga, o'zini kattalar olamiga daxldor shaxs sifatida namoyon etishga intiladi. Kattalar hayotiga kirishga bo'lgan qiziqish kichik o'smirlik davrining asosiy psixologik belgilaridan biridir. Bu bosqichda o'smir kattalarning xatti-harakatlariga taqlid qiladi, biroq o'zining ushbu mos kelmaydigan harakatlariga nisbatan tanqidiy munosabat bildirishga hali qodir emas. U o'zini kattalarga yaqinroq his qilishga urinadi, tengdoshlari bilan bo'lgan o'zaro munosabat esa yanada kuchayadi va muayyan guruhga nisbatan haddan tashqari bog'liqlik shakllanadi[5].

Ikkinchi bosqichda esa o'smir o'zining endi “bola emasligi”ga shubha qilmaydi va o'zini individual shaxs sifatida anglay boshlaydi. Bu davrda o'smir o'zining shaxsiy qadr-qimmatini ulug'lashga, o'ziga xos harakatlar qilishga intiladi. Ular o'z shaxsiyati haqidagi mulohazalarga ko'proq e'tibor beradilar, o'zlarini anglash, maqsadli rivojlantirish va tarbiyalashga ongli ravishda harakat qila boshlaydilar[4].

O'smirlik davrida bolalar o'yin va hordiq chiqarishga avvalgiga nisbatan kamroq vaqt ajratib, tobora ko'proq jiddiy faoliyat turlari bilan shug'ullana boshlaydilar. Bu bosqichda ularning bilish jarayonlari faol rivojlanadi. Maktab ta'limi ushbu jarayonda hal qiluvchi rol o'ynab, o'smirlarning bilish faoliyatini sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqadi. O'qish o'smir hayotida markaziy o'rin egallaydi; ularning ko'pchiligi mustaqil mashg'ulot shakllariga qiziqadi. Bu yoshdagi o'quvchilarning fanlarga bo'lgan qiziqishi va muvaffaqiyatli o'zlashtirish darajasi ko'p jihatdan o'qituvchining o'quv materialini sodda va ravon tushuntira olish mahoratiga bog'liq bo'ladi. O'qish faoliyati orqali o'smirning o'z-o'zini anglash darajasi kengayib boradi, atrof-muhit va boshqa insonlar haqidagi bilimlari chuqurlashadi. Natijada psixik rivojlanishning yangi bosqichi boshlanadi. Bilimga ehtiyoj tobora ortadi va bu holat o'quv fanlariga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanishiga olib keladi [6].

НАТИЖАЛАР (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS). O'smirlik davrida o'qishga bo'lgan yangi motivlar yuzaga chiqadi. Ushbu motivlar o'smirning hayotiy maqsadlari, kasb tanlovi va shaxsiy idealiga bog'liq bo'lib, bilish jarayonlarining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Aynan shu bosqichda o'quvchilar ilmiy,

badiiy va hayotiy bilimlarni egallashga ehtiyoj sezadilar va bu yo'nalishda faol harakat qila boshlaydilar. Bilimli o'quvchi tengdoshlari orasida hurmatga sazovor bo'ladi. Bilim o'z navbatida o'smirlar quvonch bag'ishlab, tafakkur salohiyatining o'sishiga xizmat qiladi. Bilish jarayonlarining rivojlanishida nutq — og'zaki va yozma shakllari bilan — asosiy vositalardan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Maktabdagi ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilishi o'smirlar nutqining rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. Nutqni o'zlashtirishga intilish o'smirning muloqot, bilish va ijodiy faoliyatga bo'lgan ehtiyojini ifodalaydi[7].

Nutq rivoji bir tomondan so'z boyligining ortishi bilan, ikkinchi tomondan esa tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalar mohiyatini chuqur anglash orqali yuz beradi. Bu davrda o'smirlar til vositasida atrof-muhitni aks ettirish bilan bir qatorda insonning dunyoqarashi nutq orqali shakllanishini ham anglab yetadilar. Aynan shu yoshdan boshlab ular nutqning bilish jarayonlari rivojlanishida hal qiluvchi omil ekanligini tushunadilar. O'smirlar ko'pincha nutqdagi ifoda uslublariga qiziqish bildiradilar: "Qanday qilib to'g'ri yozish kerak?", "Qanday qilib aniq va ravshan ifodalash mumkin?", "Qanday so'z ishlatish lozim?" kabi savollar ularda qiziqish uyg'otadi. Ular maktabdagi o'qituvchilar, ota-onalar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari (kitob, gazeta, radio, televideniye) vakillarining nutqidagi kamchiliklarni tezda ilg'ab olishga moyil bo'ladilar. Bu holat, bir tomondan, o'smirni o'z nutqini nazorat qilishga o'rgatsa, ikkinchi tomondan esa, kattalarning ham nutqdagi xatolarga yo'l qo'yishi mumkinligini anglatadi va natijada o'zidagi til xatolarini tuzatishga harakat qilishga olib keladi [5].

O'smirlik davrida yetakchi faoliyat bu o'qish, muloqot hamda mehnat faoliyatidir. O'smirlik davri muloqotining asosiy vazifasi bu do'stlik, o'rtoqlikdagi elementar normalarini aniqlash va egallashdir. O'smirlar muloqotining asosiy xususiyati shundan iboratki, u to'la o'rtoqlik kodeksiga bo'ysunadi. O'smirlarni o'z tengdoshlari bilan muloqotda bo'lishi g'oyat katta ahamiyatga egadir. O'smirlar do'stlik, o'rtoqlik va o'zaro yordamlashishni hamma narsadan yuqori qo'yadilar: ana shunday o'zaro munosabatlar, o'spirinlik yillarida ham davom etaveradi. Bunda

o'smirlar va ilk yoshdagi o'spirin o'quvchilarniig xulq-atvorlariga do'stlari ota-onalar va pedagoglarga nisbatan bir necha marta kuchliroq ta'sir etadilar. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, o'smir bolaning yetilmaganligi va tajribasizligi uni tevarak-atrofdagi kimsalardan madad axtarishga majbur qiladi. O'smir bolaga uning istaklarini tushunadigan va ularni amalga oshirishga yordam beradigan do'st kerak. O'smirning do'stlari bilan muloqoti ham o'ziga xos xususiyatlarga ega. Tengdosh bolalar bilan prinsipial tenglik holatidagi munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish bo'ladi. Bu hol o'smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. Kattalar bilan muloqotda bo'lish tengdoshlari bilan bo'lgan muloqotning o'rnini bosa olmaydi [8].

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION). Xulosa qilganda o'smir yoshdagi bolalarning o'z-o'zini hurmat qilish tuyg'usini shakllantirish uning shaxsi rivojida muhim hisoblanadi. Bunda o'qituvchi bolaning sinf va maktab jamoasi oldidagi obro'sini ko'tarish yo'llarini izlashi, turli sohalaridagi yutuqlarini ko'pchilikka ma'lum qilib, xato va kamchiliklarini yo'qotishda donolik bilan harakat qilishi uning o'z kuch va imkoniyatlariga ishonishiga zamin yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА / REFERENCES):

1. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2008.
2. Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. – Blackwell Publishing Ltd, 2013. – 515p.
3. G'oziyev E.G'. Psixologiya fani XXI asrda. – Toshkent: Universitet, 2002.
4. James W. Introduction to psychology. 2013.
5. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. Darslik. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2012. – 176 b.
6. Kelvin Seifert and Rosemary Sutton. Educational Psychology, 2013.
7. Maxsudova M.A. Muloqot psixologiyasi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2006.
8. Myers, D. G. Psychology. Hope College. Holland, Michigan, 2014. – P. 910.
9. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. – Toshkent: TDPU, 2010. – 400 b.
10. Zuvarova M.E. Umumiy psixologiya – Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.